

MATBUOT XABARI

O‘zbekiston xususiy investorlar ishtirokida va Jahon banki ko‘magida energetika sohasini modernizatsiya qilishga investitsiya kiritmoqda

VASHINGTON, 2023-yil 9-may — Jahon banki Ijrochi direktorlar kengashi O‘zbekistonning Sirdaryo viloyatida energiya-tejamkor gaz-turbinali elektr stansiyasini qurish va ekspluatatsiya qilishni qo‘llab-quvvatlovchi [loyihani](#) tasdiqladi. Mazkur loyiha doirasida Jahon banki “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJga xususiy investorlar ishtirokida yangi elektr stansiyasida ishlab chiqarilgan elektr energiyasini sotib olish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishi uchun zarur bo‘lgan umumiy summasi 29 million dollargacha bo‘lgan bank kafolatini taqdim etadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotda qayta tiklanadigan energiya manbalarini kengaytirishga harakat qilmoqda. Shu bilan birga, tabiiy gaz hali ham elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun keng qo‘llaniladi – mamlakatda elektr energiyasini ishlab chiqarishning 70 foizdan ortig‘i ushbu turdagi yoqilg‘idan foydalangan holda amalga oshiriladi. Eskirgan issiqlik elektr stansiyalarining (IES) energiya samaradorligi past. Bu tabiiy gaz sarfining yuqori bo‘lishiga va atmosferaga karbonat angidridning yuqori darajadagi emissiyasiga olib keladi.

Yangi loyiha O‘zbekistonning energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish maqsadida toza energiyaga o‘tish borasidagi sa‘y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlamoqda. Xususan, Sirdaryo viloyatidagi 1580 MVt quvvatga ega bo‘lajak bug‘-gaz IES (“Sirdaryo-2” IES) 3 milliondan ortiq aholini barqaror elektr energiyasi bilan ta‘minlaydi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, yangi IES mamlakatdagi elektr energiyasiga bo‘lgan talabning qariyb 15 foizini qondira oladi va hozirda ishlayotgan elektr energiyasini ishlab chiqarish quvvatlarining qariyb 10 foizini tashkil qiladi.

Issiqlik foydali ish koeffitsiyenti 60 foizdan yuqori bo‘lganligi sababli, “Sirdaryo-2” IESning samaradorligi hozirda ishlatilayotgan IESlar orasida ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha ikki baravar yuqori bo‘ladi. Bu eskirgan quvvatlarni almashtirishga va atmosferaga issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirishga imkon beradi.

Yangi IES ishga tushirilgandan so‘ng, ishga tushirilishining dastlabki yillarida u mamlakatdagi yillik gaz iste‘molining 3,5 foizini (yiliga qariyb 1,5–1,7 milliard m³ gazni) tejashga imkon beradi. Natijada, dastlabki yillarda atmosferaga karbonat angidrid emissiyasi har yili 2,8 million tonnaga kamayadi. Shunday qilib, “Sirdaryo-2” IES energiya tizimini eng kam xarajat evaziga yanada karbonsizlashga (karbonat angidrid emissiyasini kamaytirishga) xizmat qiluvchi samarali texnologik yechimlarning ajralmas qismidir.

“O‘zbekistonda aholi va iqtisodiyotning elektr energiyasiga bo‘lgan talabini qondirish uchun katta hajmda elektr energiyasi ishlab chiqarish, zamonaviy energetika infratuzilmasini rivojlantirish zarur. Zamonaviy “Sirdaryo-2” IES arzon elektr energiyasini ishonchli yetkazib beradi, uning taqchilligi muammolarini hal qilishga yordam beradi, shuningdek, mamlakatning energetik xavfsizligini mustahkamlaydi”, — dedi **Jahon bankining O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Marko Mantovanelli**. “Sirdaryo-2” IES, shuningdek, energiya tizimining moslashuvchanligini oshiradi va bu bilan o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini elektr tarmoqlariga integratsiyalashuviga ko‘maklashadi. Bu chora-tadbirlar O‘zbekistonning ekologik toza energiyaga o‘tishida va 2050-yilgacha energiyani karbonsizlantirish bo‘yicha rejalarini amalga oshirishida qo‘llab-quvvatlaydi”.

“Sirdaryo-2” IES tanlov asosida jalb qilingan xususiy operator ishtirokida O‘zbekistondagi birinchi va hozircha yagona issiqlik energiyasi ishlab chiqaruvchisidir. “Enersok Foreign Enterprise” LLC (“Enersok”) “Sirdaryo-2” IESni qurib bitiradi va uning faoliyatini boshqaradi. Ushbu kompaniya Electricite de France, Nebras Power, Sojitz Corporation va Kyuden Internationallarni o‘z ichiga olgan xalqaro investorlar konsorsiumiga tegishli.

Loyiha doirasida Jahon banki “Enersok” kompaniyasi bilan Kelishuviga ko‘ra “Sirdaryo-2” IESda ishlab chiqarilgan elektr energiyasini sotib olish bo‘yicha “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJga o‘z majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan umumiy summasi 29 million dollargacha bo‘lgan bank kafolatini taqdim etadi.

Ilgariroq joriy yilda Jahon banki guruhiga kiruvchi Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) loyihani jami 150 million dollarlik moliyalashtirish bilan [qo‘llab-quvvatladi](#) va “Sirdaryo-2” IESni qurish va ishga tushirish uchun zarur bo‘lgan 1 milliard dollardan ortiq xususiy investitsiyalarni jalb qilishga ko‘maklashdi.

Hozirgi vaqtda [Jahon bankining O‘zbekistondagi dasturi](#) Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng yirik dasturlardan biri bo‘lib, umumiy qiymati qariyb 5,7 milliard dollar bo‘lgan 28 loyihadan iborat. Ushbu loyihalar mamlakat hukumatiga fuqarolarning farovonligini oshirish va O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘sishini jadallashtirish maqsadida turli ijtimoiy-iqtisodiy tarmoqlarni, shu jumladan energetikani isloh qilish va modernizatsiya qilishga yordam beradi.

Matbuot xabari № 2023/ECA/113